NUKUS TUMANINING TAShKIL TOPIShI VA DASTLABKI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISh BOSQIChI (1969–1991-YY.)

Naubetov Aytbay Temirbaevich – *tayanch doktorant*
aytbaynaubetov@gmail.com
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti

ОБРАЗОВАНИЕ И НАЧАЛЬНЫЙ ЭТАП СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ НУКУССКОГО РАЙОНА (1969–1991 ГГ.)

Наубетов Айтбай Темирбаевич – *базовый докторант*
Каракалпакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук
Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан

THE FORMATION AND EARLY SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF NUKUS DISTRICT (1969–1991)

Naubetov Aytbay Temirbaevich – *doctoral student*
Karakalpak Research Institute of Humanities,
Karakalpak Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Tayanch so‘zlar: Nukus tumani, partiya arxivi, paxtachilik, sholichilik, chorvachilik, rejali iqtisodiyot.

Rezyume. Maqolada Nukus tumanining tashkil topishi va 1969–1991-yillardagi dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivining R-617-fondidagi ilk bor ilmiy muomalaga kiritilayotgan hujjatlar asosida tahlil qilinadi. Tumanni tuzishdan asosiy maqsad Nukus va Taxiatosh shaharlarining oziq-ovqat bazasini yaratish bo‘lgani aniqlandi. Tuman ikki yil ichida paxta rejasini bajarish foizi bo‘yicha O‘zbekistonda birinchi o‘ringa chiqqani ko‘rsatiladi. Shu bilan birga chorvachilik va sabzavotchilikda rejali iqtisodiyotga xos tizimli muammolar saqlanib qolgani asoslanadi.

Ключевые слова: Нукусский район, партийный архив, хлопководство, рисоводство, животноводство, плановая экономика.

Резюме. В статье на основе впервые вводимых в научный оборот документов фонда Р-617 Центрального государственного архива Республики Каракалпакстан анализируются образование Нукусского района и его социально-экономическое развитие в 1969–1991 гг. Установлено, что район создавался прежде всего как продовольственная база для городов Нукус и Тахиаташ. Показано, что уже через два года район вышел на первое место в Узбекистане по проценту выполнения плана по хлопку. Вместе с тем в животноводстве и овощеводстве сохранялись системные проблемы, присущие плановой экономике.

Key words: Nukus district, party archive, cotton growing, rice growing, livestock farming, planned economy.

Summary. Drawing on documents of fond R-617 of the Central State Archive of the Republic of Karakalpakstan, introduced into scholarly circulation for the first time, the article analyses the formation of Nukus district and its socio-economic development in 1969–1991. It establishes that the district was created primarily as a food supply base for the cities of Nukus and Takhiatash. Within two years the district ranked first in Uzbekistan in terms of the percentage fulfilment of the cotton plan. At the same time, systemic problems typical of the planned economy persisted in livestock and vegetable farming.

Kirish. Viloyat va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy tarixini xolis o‘rganish mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarix fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Orolbo‘yi mintaqasining tarkibiy qismi bo‘lgan Nukus tumani 1969-yilda tashkil topgan bo‘lsa-da, uning hududi qadimgi Xorazm vohasining ko‘p asrlik tarixiy qatlamlarini o‘zida mujassamlashtiradi: Nukus shahridan 14 km shimoli-g‘arbdagi Tok-qal’a xarobalari buning yorqin dalilidir [6:6]. Biroq tuman tarixi hozirga qadar yaxlit tadqiqot obyekti bo‘lmagan, mavjud adabiyotlarda u Qoraqalpog‘istonning umumiy tarixi yoki qo‘shni Kegeyli tumani tarixi doirasida qisman yoritilgan. Ayniqsa, tuman partiya qo‘mitasi fondida saqlanayotgan 1969-1970-yillar hujjatlari hozirga qadar ilmiy muomalaga kiritilmagan. Maqolaning maqsadi - tumanning tashkil topishi, dastlabki rivojlanish ko‘rsatkichlari, yutuq va muammolarini ilgari foydalanilmagan arxiv hujjatlari asosida tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mavzuga oid adabiyotlardan tumanning birinchi rahbari A.Kazbekovning asari [7] dastlabki yillardagi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bo‘yicha, K.Seydanov va G.Embergenovaning tadqiqoti [8] sholichilik tarixi bo‘yicha qimmatli ma’lumot beradi, biroq ularda arxiv hujjatlari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazilmagan. Maqolaning manbaviy asosini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivining (QR MDA) R-617-fondidagi tuman partiya konferensiyalari, byuro majlislari bayonnomalari va ma’lumotnomalar [1-5], shuningdek davriy matbuot materiallari [9-12] tashkil etadi. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillariga tayanildi; qiyosiy-tarixiy usul 1968-yil va 1969–1970-yillar ko‘rsatkichlarini solishtirishda, statistik usul ishlab chiqarish dinamikasini tahlil qilishda, manbashunoslik tahlili partiya hujjatlaridagi raqamlarni o‘zaro tekshirishda qo‘llanildi.

Natijalar. *Tumanning tashkil topishi.* Nukus tumanini tashkil etishning huquqiy asosi O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1968-yil 25-dekabrdagi "O‘zbekiston SSR tarkibida yangi tumanlar tuzish to‘g‘risida"gi Ukazi bo‘ldi [7:11]. Tuman 1969-yil 15-yanvarda o‘tkazilgan I tuman partiya konferensiyasida rasman tuzildi. Konferensiya prezidiumida O‘zKP Qoraqalpog‘iston viloyat qo‘mitasining Nukus tumani bo‘yicha tashkiliy byurosi raisi A.Kazbekov va Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Soveti Prezidiumining tashkiliy qo‘mitasi raisi Yu.Madaminov bo‘lgan [1:2-3].

O‘zKP Qoraqalpog‘iston ASSR qo‘mitasining birinchi kotibi Q.K.Kamalovning ma’lumotiga ko‘ra, tuman tarkibiga Berdaq nomidagi, "Nukus", Jdanov nomidagi, Telman nomidagi, "Kommunizm", "VLKSMning 50 yilligi", "Bog‘dorchilik-uzumchilik" sovxozlari va "Sovetskaya Karakalpakiya" kolxozi kirgan, tumanda 22 200 kishi yashagan, u avtonom respublikaning o‘n ikkinchi tumaniga aylangan [1:8]. Tuman partiya tashkiloti 22 boshlang‘ich tashkilotdan iborat bo‘lib, unda 656 kommunist hisobda turgan [1:37]. Bu yangi tuman hokimiyat organlari partiya va sovet yo‘nalishida parallel tuzilgan vaqtinchalik tashkiliy organlar orqali shakllantirilganini ko‘rsatadi.

Arxiv hujjatlari tumanni tuzishdan ko‘zlangan maqsadni aniq ochib beradi. Kamalov Nukus shahrida 70 ming kishi yashayotgani, yaqin 8-10 yilda aholi 120-150 mingga yetishini ta’kidlab, "yangi tashkil etilgan Nukus tumani asosan Nukus va Taxiatosh shaharlari aholisining dasturxonini to‘ldirishga xizmat qilishi lozim" degan [1:24]. "Nukus" sovxozi shaharni sabzavot, poliz va sut bilan, "Kommunizm" sovxozi meva va sabzavot bilan ta’minlashi, Telman nomidagi sovxoz cho‘chqa go‘shti yetkazishi, yiliga 20 mln tuxum beradigan parranda fabrikasi qurilishi belgilangan; "VLKSMning 50 yilligi" sovxozi va "Sovetskaya Karakalpakiya" kolxozi sholichilikka, Jdanov nomidagi sovxoz paxtachilikka ixtisoslashgan [1:25-26]. Demak, tuman tez o‘sayotgan avtonom respublika poytaxtining oziq-ovqat bazasi sifatida loyihalashtirilgan.

Tuman markazi Jdanov nomidagi sovxozda belgilanib, "Jdanov poselkasi" deb atalgan; unda tuman qo‘mitasi va ijroiya qo‘mitasi binolari, ikki qavatli univermag, 100 o‘rinli kasalxona, maktab qurish, gaz, suv, telefon va asfalt yo‘l o‘tkazish ko‘zda tutilgan [1:31-32]. Shuningdek, Jdanov, Telman va "Kommunizm" sovxozlarini bog‘lovchi asfalt yo‘llar qurish, Nukus-"VLKSMning 50 yilligi" yo‘lini Kegeyli tumanigacha uzaytirish, "Nukus" sovxozining bo‘limlarida kollektor qazish ishlarini fevral-mart oylarida tugatish vazifasi qo‘yilgan [1:32-33]. 1970-yilga kelib Jdanov sovxozidan Telman va "Kommunizm" sovxozlariga hamda "Nukus" sovxozi markazidan Shortanbay bo‘limiga asfalt yo‘llar yotqizilgan, aloqa bo‘limi ochilib, shaharlararo telefon va telegraf ishga tushirilgan [3:7]. 1970-yil yanvarida ham tuman qo‘mitasi byurosining majlisi "Jdanov qishlog‘i"da o‘tkazilgan [4:1]. Biroq rejalar to‘liq amalga oshmagan: 1970-yil dekabrida "tuman markazining hali bosh rejasi yo‘q" ekani tanqid qilingan [3:23]. Nukus tuman xalq sudyasini saylash 1969-yil 16-martga belgilangan [12]. Ikki yil ichida boshlang‘ich partiya tashkilotlari 22 tadan 27 taga, kommunistlar 653 nafardan 778 nafarga yetgan, tashkilotda 11 millat vakillari birlashgan [3:31]. Konferensiya delegatlarining tarkibi tumanning ko‘p millatli xarakterini aks ettiradi: 1969-yilda delegatlar orasida qoraqalpoqlar 80, qozoqlar 66, o‘zbeklar 32, koreyslar 6, ruslar 4 nafar bo‘lsa [1:38], 1970-yilda qoraqalpoqlar 95, qozoqlar 54, o‘zbeklar 31 nafarni tashkil etgan [3:53]. Ayni vaqtda partiya safiga qabul qilinganlar orasida xotin-qizlar atigi 19 foizni tashkil etgani qayd etilgan [3:31].

Qishloq xo‘jaligi. Yangi tuman meros qilib olgan xo‘jaliklarning holati bir xil bo‘lmagan. 1968-yilda Berdaq nomidagi sovxoz paxta rejasini 143 foizga, Jdanov nomidagi sovxoz 147 foizga bajargan, "VLKSMning 50 yilligi" sovxozi gektaridan 29 sentnerdan sholi olgan [1:17-18]. Jumladan, Berdaq nomidagi sovxoz paxta hosildorligini rejadagi 15,25 sentner o‘rniga 21,9 sentnerga, Jdanov nomidagi sovxoz 15,44 sentner o‘rniga 22,75 sentnerga yetkazgan, paxtaning 55,4 foizi mashinada terilgan [1:17, 44]. Ayni paytda tumanning "bosh vazifasi" deb belgilangan tarmoqlar orqada qolgan: sabzavot rejasi atigi 46, kartoshka 69, poliz 84 foizga bajarilgan, go‘sht 4699 t o‘rniga 2871 t yetishtirilgan; "Nukus" sovxozi 372 ming, "VLKSMning 50 yilligi" sovxozi 313 ming, Telman nomidagi sovxoz 213 ming so‘m zarar bilan ishlagan [1:20-22]. Tumanning birinchi yili qattiq qish tufayli og‘ir kechgan [2:7].

Shunga qaramay, tuman tez rivojlandi: ikki yil ichida o‘rtacha yillik paxta yetishtirish 12 469 tonnadan 14 883 tonnagacha, sholi 6443 tonnadan 7790 tonnagacha ortgan, tuman davlatga rejadan tashqari 7136 tonna paxta topshirib, rejani 156 foizga bajargan [3:9]. 1970-yilda "o‘z tarixida ilk bor" paxtaning har gektaridan 25 sentnerdan hosil olingan, Jdanov nomidagi sovxoz rejani 160 foizga bajargan [3:12]. Qishloq xo‘jaligi asosiy fondlari 1 mln 465 ming so‘mdan 2 mln 167 ming so‘mga oshgan, paxtaning 67 foizi mashinada terilgan, sholi maydonlarining 66,5 foizi kombaynlarda o‘rilgan, ilk bor 300 gektar paxtaga gerbitsid qo‘llanilgan [3:10]; hisobot davrida 869 ming so‘m kapital mablag‘ sarflanib, 205 km yangi kollektor qazilgan [3:9]. Viloyat qo‘mitasi vakili M.E.Lunyov tuman rejani bajarish foizi bo‘yicha O‘zbekistonda birinchi o‘ringa chiqqanini ta’kidlagan [3:66]. Suv xo‘jaligi sohasida ham sezilarli ishlar amalga oshirilgan: suv toshqiniga qarshi Qoratov uchastkasidan Qizil uy uchastkasigacha 210 km damba barpo etilgan, Oktyabr arnasi bo‘yicha 33 km, Nazarxon arnasi bo‘yicha 46 km, Jinishke kanali bo‘yicha 11 km rekonstruksiya ishlari bajarilgan, xo‘jaliklarni suv bilan ta’minlash rejasi 135 foizga bajarilgan [3:63-64].

Bu yutuqlar ortida mehnatkashlarning fidokorona mehnati turgan: Berdaq nomidagi sovxozning ayol mexanizatori S.Allambergenova mavsumda 85 tonna paxtani mashinada tergan [3:53], S.Ashirov boshchiligidagi olti kishilik brigada ishlarning 90 foizdan ortig‘ini mexanizmlar bilan bajargan [3:10-11]. Mehnatga haq to‘lash ham oshib borgan: Aleksey Kan brigadasi a’zolarining o‘rtacha yillik daromadi mukofotlar bilan birga 3800 so‘mni tashkil etgan [3:11]. Bu ma’lumotlar xo‘jaliklarda mexanizatsiyaga asoslangan yangi ishlab chiqarish madaniyati shakllana boshlaganini, xotin-qizlarning ham texnikaviy kasblarga jalb etilganini ko‘rsatadi. Sholichilikda "VLKSMning 50 yilligi" sovxozidagi Aleksey Kan brigadasi 1968-yilda 140 gektarning har gektaridan 38,6 sentner [1:18], 225 gektarning har gektaridan 59,3 sentner hosil olgan [3:13], 1973-yildagi 58,6 sentnerlik natija esa respublika rekordi sifatida qayd etilgan [9]. A.Kanning yozishicha, sholi tannarxi rejadagi 20 so‘m 21 tiyin o‘rniga 16 so‘m 63 tiyinni tashkil etgan [11]. Sabzavotchilikda ham burilish yuz berdi: "Nukus" sovxozi 1970-yilda 2860 t o‘rniga 3098 t sabzavot topshirgan [3:14-15], biroq uning direktori R.Erlanov xo‘jalik so‘nggi 13 yilda rejalarni faqat keyingi 2 yilda bajarganini tan olgan [3:47]. Keyingi yillarda ham o‘sish davom etgan: to‘qqizinchi besh yillikning dastlabki uch yilida 13 248 t sabzavot va 3866 t kartoshka yetishtirilgan bo‘lsa, o‘ninchi besh yillikning shu davrida bu ko‘rsatkichlar 22 438 t va 6389 t ga yetgan [7:51]. 1976-yilda sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining "VLKSMning 50 yilligi" sovxoziga ko‘chirilishi tumanni mintaqaviy agrar fan markazlaridan biriga aylantirdi [8:10].

Ijtimoiy-madaniy soha. 1970/71-o‘quv yilida tumanda o‘quvchilar soni 6020 taga yetib, 400 dan ortiq o‘qituvchi faoliyat yuritgan, o‘zlashtirish 96,6 foizni tashkil etgan [3:57]. Biroq rus tili, chet tili va matematika o‘qituvchilari yetishmagan, maktab binolari tanqis bo‘lgan: Frunze nomidagi o‘rta maktab 420 o‘quvchiga mo‘ljallangan binoda 750 o‘quvchini o‘qitgan [1:41]. 1970-yil 1-yanvarda tumandagi 22 feldsher-akusherlik punktining 11 tasi avariya holatida bo‘lgan [4:23-24]; 5 tasi doimiy binoga ega bo‘lmagan, birortasida telefon aloqasi bo‘lmagan. Berdaq sovxozining "Nazarxon" uchastka kasalxonasi 1969-yilgi suv toshqini va jala tufayli avariya holatiga tushib, olti xonali moslashtirilgan binoga ko‘chirilgan; besh yillik rejada 100 o‘rinli tuman kasalxonasini 1972-yilda, "VLKSMning 50 yilligi" sovxozida 50 o‘rinli uchastka kasalxonasini 1971-yilda qurish rejalashtirilgan [4:23]. 1970-yilda tuman kasalxonasi 50 o‘rindan 75 o‘ringa kengaytirilib, poliklinika ochilgan; tumanda 4 kasalxona, 4 feldsherlik va 24 feldsher-akusherlik punkti faoliyat yuritib, ularda 100 ga yaqin tibbiyot xodimi ishlagan [3:23]. 1969-yil iyunidan tuman gazetasi "Коммунизм байрағы" chiqa boshlagan, radionuqtalar soni ikki barobardan ziyod oshgan [3:7, 29]; 1972-yil 4-iyulda tuman markaziga tabiiy gaz yetkazilgan [10]. Savdo sohasida chakana tovar aylanmasi ikki yilda 11,2 foizga o‘sgan, biroq reja 84,4 foizga bajarilgan, tuman iste’mol kooperatsiyasida 162 716 so‘mlik kamomad aniqlangan [3:21-22]. Ikki yil ichida atigi 2 ta yangi do‘kon ochilgan, avval ishlab turgan 4 ta do‘kon yopilib qolgan, ajratilgan fondlardan 205 ming va 525 ming so‘mlik tovar olinmay qolgan [3:21]. Komsomol tashkilotlari ham kengaygan: ikki yilda komsomol a’zolari 1118 nafardan 2344 nafarga yetgan [3:35]. Sovet davrining so‘nggi o‘n yilligida ilg‘or xo‘jaliklarda turmush darajasi sezilarli yaxshilangan: "VLKSMning 50 yilligi" sovxozining 700 ga yaqin xonadoni mulkida 650 dan ortiq televizor, 500 ga yaqin muzlatgich, 476 mototsikl va 67 yengil avtomobil bo‘lgan [7:33].

Muhokama. Arxiv hujjatlari yutuqlar bilan birga tizimli kamchiliklarni ham ochiq aks ettiradi. 1970-yil martidagi tekshiruvda bir yilda yirik shoxli qoramol 4287 boshdan 4201 boshga, cho‘chqalar 675 boshga kamaygani aniqlangan [5:7]. Jdanov nomidagi sovxoz 1350 t beda o‘rniga 112 t tayyorlagan, Berdaq nomidagi sovxozda hujjatlarda ko‘rsatilgan silos amalda bo‘lmagan [5:10]; 1969-yilda yem uchun beda tayyorlash rejasi 30 foizga, beda urug‘i tayyorlash rejasi atigi 14,2 foizga bajarilgan [4:38–39]; inventarizatsiyada 230–291 kg deb yozilgan mollar so‘yilganda 149–190 kg chiqqan [5:11]. Lunyovning e’tirofiga ko‘ra, chorvachilikdagi kamchiliklar tufayli Nukus sut-yog‘ zavodi Ukrainadan keltirilgan quruq sutni qayta ishlashga majbur bo‘lgan [3:66]. Shu bilan birga 1970-yilda o‘tgan yilga nisbatan tumanda 100 t go‘sht, 352 t sut ko‘p yetishtirilgani ham qayd etilgan [3:17], ya’ni vaziyat sekin bo‘lsa-da yaxshilana boshlagan. Sabzavotchilikdagi muammolar ham rejali tizimning o‘ziga xos ziddiyatlarini aks ettiradi: tannarx yuqori bo‘lgan, "Nukus" sovxozida 1970-yilda issiqxonada 8100 so‘mlik mahsulot uchun 11 800 so‘m sarflangan, tayyorlov tashkilotlari bilan aloqa yo‘qligi sababli mavsumda bozorni xususiy sektor mahsulotlari to‘ldirgan [3:16]. Demak, tumanning "oziq-ovqat bazasi" sifatidagi asosiy vazifasi dastlabki yillarda to‘liq bajarilmagan.

Meliorativ muammolar ham keskin bo‘lgan: 375 km zovurning to‘liq ishlamagani, "KS-5" kollektori olti yil tozalanmagani qayd etilgan [3:20, 64]; Amudaryo oqimining o‘zgarishi tufayli "Sovetskaya Karakalpakiya" kolxozi 400 gektar yerdan ajralish xavfi ostida qolgan [3:50]. Xo‘jalik rahbariyatidagi kamchiliklar uch sovxoz direktorining almashtirilishiga, "VLKSMning 50 yilligi" sovxozining sobiq rahbarlariga jinoiy ish qo‘zg‘atilishiga olib kelgan [3:32–33, 62]. Bu holatlar paxta va sholiga yo‘naltirilgan rejali iqtisodiyotning ichki ziddiyatlarini ko‘rsatadi: markaz uchun ustuvor bo‘lgan texnik ekinlar bo‘yicha rejalar ortig‘i bilan bajarilgan, aholining kundalik ehtiyojlariga xizmat qiluvchi tarmoqlar esa resurs va e’tibor yetishmasligidan aziyat chekkan. Yerlarni o‘zlashtirishning ekstensiv usullari, kollektor-drenaj tarmog‘ining sustligi keyingi o‘n yilliklarda Orolbo‘yi mintaqasida keskinlashgan ekologik muammolarning ildizlaridan biri bo‘lganini ham ta’kidlash lozim. Shu bilan birga partiya hujjatlaridagi raqamlarga tanqidiy yondashish zarur: masalan, Berdaq nomidagi sovxozning paxta rejasi hisobot ma’ruzasida 124 foiz, direktor nutqida 103 foiz deb berilgan [3:12, 60].

Xulosa. Birinchidan, Nukus tumani qisqa muddatda tashkil etilib, partiya, sovet va sud organlari deyarli bir vaqtda shakllantirildi; uni tuzishdan asosiy maqsad Nukus va Taxiatosh shaharlarining oziq-ovqat bazasini yaratish bo‘lgan. Ikkinchidan, tuman ikki yil ichida paxta va sholi yetishtirishda yuqori natijalarga erishib, rejani bajarish foizi bo‘yicha O‘zbekistonda yetakchi o‘ringa chiqdi. Uchinchidan, tumanning "bosh vazifasi" bo‘lgan sabzavotchilik va chorvachilikda zararli ishlash, yem-xashak tanqisligi va hisob-kitobdagi buzilishlar saqlanib qoldi. To‘rtinchidan, ijtimoiy-madaniy sohadagi o‘sish infratuzilma tanqisligi bilan birga kechdi. Tadqiqot natijalaridan Qoraqalpog‘iston tarixiga oid umumlashtiruvchi ishlarda va mahalliy tarix bo‘yicha maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. QR MDA. R-617-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish. Nukus tuman I partiya konferensiyasining bayonnomasi, 15.01.1969.
2. QR MDA. R-617-fond, 1-ro‘yxat, 6-ish. Tuman partiya faollari yig‘ilishlarining bayonnomalari (№ 1-2), 1969.
3. QR MDA. R-617-fond, 1-ro‘yxat, 20-ish. Nukus tuman II partiya konferensiyasining bayonnomasi, 08.12.1970.
4. QR MDA. R-617-fond, 1-ro‘yxat, 23-ish. O‘zKP Nukus tuman qo‘mitasi byurosi majlislarining bayonnomalari (№ 17-19), 1970.
5. QR MDA. R-617-fond, 1-ro‘yxat, 27-ish. O‘zKP Nukus tuman qo‘mitasi byurosi bayonnomalariga materiallar (№ 18, 19, 27), 1970.
6. Гудкова А.В. Ток-кала. – Ташкент: «Фан», 1964.
7. Қазбеков Ә. Өрлеў жолында. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1979.
8. Сейданов К., Ембергенова Г. Дән – халқымыздың ырысқы несийбеси (Тарийхый очерк). – Н.: ILIMPAZ, 2024.
9. Алланазаров Ғ. Атақлы салыкеш. / Коммунизм байрағы, 1975-жыл, 12-июнь, № 70.
10. Ақмаңғытқа газ келди. / Коммунизм байрағы, 1972-жыл, 6-июль, № 81.
11. Кан А. Депутат - халық хызметкери: Исенимге ис пенен. / Совет Қарақалпақстаны, 1971, 21-июль, № 140.
12. Нөкис районлық халық судының халық судьясын сайлаўды өткериў ҳаққында. / Совет Қарақалпақстаны, 1969-жыл 26-февраль, № 40.